

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK
JURNAL

6/2025

Bosh muharrir:

Raxmonov Zafarjon Yashinovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Shaxzoda
Djurayev Dusmurod
Ibragimova Gulnora
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Quronov Muhammad
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xaydarov Mamat
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

TABIIY FANLAR TA'LIMI

TIBBIYOT OLIYGOHLARI MAXSUS FANLARINI O'QITISHDA TA'LIM
METODLARINI TANLASH MEZONLARI

Abdullayeva Charos Abduljalilovna, Toshkent davlat tibbiyot universiteti «Ichki kasalliklar» kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, **Mamaradjapova Dilorom Abdullayevna**, Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi, tibbiyot fanlari nomzodi, **Baxramova Dilfuza Furqatovna**, Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim metodlarining pedagogik jarayondagi o'rni, ularni tanlash mezonlari, tibbiyot OTMlarida mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'qitish usullaridan foydalanishning imkoniyatlari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim metodi, o'qitish usuli, reproduktiv metodlar, produktiv metodlar, metodlarni tanlash mezonlari, muammoli ta'lim, grafikli organayzerlar, «Loyiha metodi», «Case-study» metodi.

КРИТЕРИИ ВЫБОРА МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ
СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

Абдуллаева Чарос Абдуджалиловна, доктор медицинских наук, заведующая кафедрой «Внутренние болезни», **Мамараджапова Дилором Абдуллаевна**, кандидат медицинских наук, преподаватель, **Бахрамова Дилфуза Фуркатовна**, преподаватель Ташкентского государственного медицинского университета

Аннотация. В данной статье раскрыты роль методов обучения в педагогическом процессе, критерии их выбора, а также возможности применения методов обучения при преподавании специальных дисциплин в медицинских высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: метод обучения, способ обучения, репродуктивные методы, продуктивные методы, критерии выбора методов, проблемное обучение, графические органайзеры, «Метод проектов», метод «Case-study».

CRITERIA FOR SELECTING TEACHING METHODS IN TEACHING
SPECIALIZED SUBJECTS IN MEDICAL UNIVERSITIES

Abdullayeva Charos Abduljalilovna, doctor of medical sciences, head of the «Internal diseases» department of Tashkent state medical university, **Mamaradjapova Dilorom Abdullayevna**, candidate of medical sciences, teacher of Tashkent state medical university, **Baxramova Dilfuza Furqatovna**, teacher of Tashkent state medical university

Abstract. This article highlights the role of teaching methods in the pedagogical process, the criteria for selecting them, and the possibilities of using teaching methods in teaching specialized subjects in medical higher educational institutions.

Key words: teaching method, teaching approach, reproductive methods, productive methods, criteria for selecting methods, problem-based learning, graphic organizers, «Project method», «Case-study» method.

Kirish. Ta'limning asosiy maqsadi – zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi ta'limning asosiy maqsadi – zamonaviy tibbiyot sohasiga oid ilmiy

bilim, amaliy ko'nikma va kasbiy malakaga ega bo'lgan, bozor talablariga to'laqonli javob beradigan mutaxassislarini tayyorlashdan iboratdir. Albatta, ushbu maqsadga erishish tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'limning sifati bilan belgilanadi. Ta'lim – maxsus tayyorlangan kishilar (pedagoglar) rahbarligida o'tkaziladigan, talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

Asosiy qism. Ta'lim metodlari – belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li hisoblanadi. O'qitish metodlari deganda, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi. Bu usullar ta'lim oluvchilarning kasbga oid bilimlarni, ko'nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlardan keng foydalaniladi: og'zaki metodlar (bayon, tushuntirish, suhbat): kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko'rgazmali metodlar (ko'rgazma, kino, videofilm, kuzatuv), amaliy metodlar (mashq, laboratoriya, amaliy ishlar).

Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga mos ravishda metodlar ikki guruhga ajratiladi: reproduktiv: muammoli izlanish (produktiv). Shuningdek, talabalarda shakllantiriladigan bilimlar darajasiga qarab o'qitish usullari to'rt guruhga ajratiladi: 1-guruh (1-daraja): ma'ruza; hikoya, tushuntirish; yo'riqnoma berish; namoyish, ko'rsatish; video usul. 2-guruh (2-daraja): kitob bilan ishlash, laboratoriya usuli, mashq. 3-guruh (3-daraja): suhbat, bahs (munozara), aqliy hujum usuli, INSERT, Pinbord, ta'limiy o'yin, vaziyatlar usuli. 4-guruh (4-daraja): loyiha usuli, keys-stadi.

Metodlar ta'lim jarayonida bir qator vazifalarni bajaradi. Bular quyidagilar: talabalarga nazariy bilimlarni berish; kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish; mustaqil ishlashga yo'naltirish; amaliyot bilan bog'lash. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ta'lim metodlarini tanlashda ma'lum bir mezonlarga amal qilish lozim bo'ladi. Quyida ushbu mezonlarga to'xtalib o'tamiz.

1. O'quv maqsadi: nazariy bilim: tushuntirish, ma'ruza. Ko'nikma: amaliy ish, mashq. Tahliliy fikrlash: keys, muammo tahlili. Innovatsion fikr: loyiha, bahs-munozara.

2. Fanning xususiyati: texnika, tibbiyot, iqtisodiyot fanlarida metodlar mazmunga mos bo'lishi kerak. Masalan: elektronika – laboratoriya ishi; Moliya – hisob-kitob metodlari.

3. Ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi: boshlang'ich bosqich – tushuntirish. O'rta bosqich – amaliyot, mustaqil ish. Yakuniy bosqich – loyiha, muammoli topshiriq.

4. Moddiy-texnik baza: amaliy metodlar moddiy ta'minotga bog'liq (stanoklar, kompyuterlar, dasturlar).

5. Ta'lim oluvchi faoliyatining xarakteri: interfaollik – guruhli ish, bahs; mustaqillik – loyiha, mustaqil topshiriq.

6. Darsning shakli va muddati: nazariy dars – tushuntirish, suhbat; amaliy dars - laboratoriya ishlari; aralash dars – kombinatsiyalangan metodlar.

Metodlarni to'g'ri tanlash kasbiy tayyorgarlik sifatini ta'minlaydi. Pedagog va talabalarning ehtiyojlari, fanning mazmuni, ta'lim maqsadi va sharoitlarini inobatga olgan holda metodni ilmiy asosda tanlashi zarur.

Pedagogik amaliyotda hozirda grafikli organayzerlardan keng foydalanilmoqda. Ulardan ham ta'lim vositasi sifatida, ham ta'lim usuli sifatida foydalanish mumkin.

Grafik organayzerlar – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali tarzda taqdim etish vositasi.

Ma'lumotlarni tartiblash va tahlil qilishda quyidagi vositalardan foydalaniladi: INSERT, Klaster, Toifalash jadvali, B/B/B, Konseptual jadval, T-jadvali, Venn diagrammasi, Nima uchun?, Baliq skeleti, Piramida, Nilufar guli, Qanday?, Kaskad.

Organayzerlar turlari: INSERT jadvali – matn bilan ishlashda faollikni qo'llab-quvvatlash vositasi. Klaster (tutam) – markaziy g'oya atrofida fikrlarni to'plash. Toifali jadval –

ma'lumotlarni umumiy alomatlariga ko'ra birlashtirish. Venn diagrammasi – 2-3 obyektning taqqoslash uchun. T-jadvali – ikki jihatni (afzallik/kamchilik) taqqoslash uchun. «Nima uchun» chizmasi – muammoning sabablarini aniqlash zanjiri. «Baliq skeleti» chizmasi – muammoni aniqlash va yechish uchun tizimli sxema. «Piramida» chizmasi – g'oyalarni pastdan yuqoriga bosqichma-bosqich taqdim etish. «Nilufar guli» chizmasi – muammoni yechishning markaziy g'oyasi atrofida 9 bo'limli struktura.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mutaxassislar tayyorlash jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish eng yaxshi samara bermoqda. Sababi, aynan kasbiy faoliyatga asoslangan muammoning yaratilishi bo'lajak mutaxassislarni fikrlashga va shu asosda muammoning yechimini topish imkonini beradi. Bu esa, ularga kelajakda shu kabi muammolar yuzaga kelsa, mustaqil bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Muammoli ta'lim texnologiyalari ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Muammoli ta'limning asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi va uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish hamda yechish qobiliyatiga ega ekanligidir. Asosiy maqsad – o'quvchi-talabalarning muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va uni hal eta olishga o'rgatish.

Muammoli ta'limni amalda qo'llashda eng muhim vazifa – o'rganilayotgan mavzuga oid muammoli vaziyat yaratishdir.

O'qituvchi quyidagilarni bajaradi: dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni hal etishni taklif etadi; bir masalaga doir turli nuqtai nazarlarni keltiradi; yetarli yoki ortiqcha ma'lumotli masalalarni yechishni taklif etadi; savolni noto'g'ri qo'yilgan shaklda berib, talabani o'ylashga majbur qiladi; muammoni hal qilishning uch darajasi: 1) O'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi. 2) O'qituvchi muammoni qo'yadi va uni talaba bilan birga hal qiladi. 3) O'quvchi-talabalar o'zlari muammoni qo'yib, yechimini topadilar.

Muammoli ta'limning asosiy faoliyatlari: muammoni turli nuqtai nazardan o'rganish va tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, faktlarni aniqlash, vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish, savollar qo'yish.

Muammoli ta'lim qadimdan mavjud. Qadimgi Gretsiyada – muammoli savol-javoblar, Hindiston va Xitoyda – muammoli bahs-munozaralar keng qo'llangan. 1894-yilda amerikalik psixolog J.Dyui muammoli ta'limni Chikago tajriba maktabida tatbiq etgan. 1970-80-yillarda bu yo'nalish amaliyotga keng joriy etildi. O'zbekistonda esa, madrasalarda suqrotona savol-javoblar orqali ziyraklik va nutqni rivojlantirishda ishlatilgan.

Muammoli-qidiruv uslublari: o'qituvchi: muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi; topshiriqlar beradi; muhokamani uyushtiradi va xulosalarni baholaydi.

O'quvchi-talabalar: oldingi bilim va tajribalarga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llarini topadilar; bilimlarini umumlashtiradilar; eng oqilona yechimni tanlaydilar.

Natijada o'quvchilarda fikrlash qobiliyati va bilimga qiziqish ortadi.

O'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yaratiladi, va o'quvchilar bu muammoni mustaqil hal etish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtiradilar. Bu jarayon aqliy faoliyatni rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim quyidagi asosiy shartlarga javob berishi lozim: o'quv materialini murakkablashtirish; bilish faoliyatini faollashtirish; ta'limni o'yin/mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish; muammoli metodlardan samarali foydalanish; muammoli savollar zanjirini tuzish.

Muammoli vaziyatning asosiy belgilari: o'quvchi uchun notanish fakt mavjudligi, vazifalarni bajarish uchun yo'riqnoma berilishi, bilishdagi qiyinchilikni hal etishda o'quvchining manfaatdorligi.

Tashkiliy prinsiplari: 1. O'quv materiallarini tizimli, tartibli rivojlantirish. 2. Vazifani yechishda tanlov imkoniyatini berish. 3. Talabani o'z bilimini baholay olishini ta'minlash.

Muammolar paydo bo'lish holatlari: yangi mavzuni tushunishda qiyinchilik, oldingi bilimlarni yangi vaziyatda qo'llay olmaslik, nazariy va amaliy tafovutlar, amaliy topshiriq natijalari bilan nazariy bilimlar orasidagi tafovut.

Muammoli ta'lim orqali talabalar mustaqil o'rganish, tahlil qilish va tadqiqot yuritish ko'nikmalarini egallaydilar.

Keys stadi metodi muammoli ta'limga asoslangan. Keys-stadi (case study) – real yoki sun'iy vaziyatni tahlil qilishga asoslangan muammoli o'qitish uslubi bo'lib, talabalarning muammoni tahlil etish va yechim topish ko'nikmasini shakllantiradi. Mazkur metod 1870-yilda Garvard universiteti huquq maktabida paydo bo'lgan. 1920-yilda Garvard biznes maktabi bu usulni iqtisodiy vaziyatlarni o'rganishda asosiy metod sifatida qabul qilgan.

Keys turlari: hayotiy keys, kabinetli keys, ilmiy-tadqiqotchilik keys.

Axborot yig'ish usullari: intervyu, suhbat, arxiv hujjatlari, hisobotlar, kuzatuv, so'rovnoma, anketa, jadval, internet manbalari, OAV, rahbarlar, ta'minotchilar, ekspertlar bilan suhbatlar.

Keys matni hajmiga ko'ra: qisqa, o'rta, yirik.

Keysdagi muammo turlari: 1. Muammo keysolog tomonidan beriladi. 2. Muammo aniq ko'rsatiladi, lekin ba'zi elementlar yo'q (masalan: hamkor haqida ma'lumot berilmaydi). 3. Qarama-qarshiliklar aniq ko'rsatilmaydi.

Keys strukturasi: 1. Pedagogik annotatsiya. 2. Keys matni. 3. Talabalar uchun ko'rsatmalar. 4. O'qituvchi tomonidan yechim variant. Yana talabalarni fikrlashga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi metodlardan biri bu – loyiha metodidir.

Loyihaviy ta'lim 300 yildan ortiq tarixga ega. XVI asrda Italiyada me'morlar tomonidan paydo bo'lgan. XVIII-XIX asrlarda Fransiya, Germaniya, Shveysariya va AQSHda texnika maktablarida keng tarqalgan. 1911-yilda AQSh Tarbiya byurosi tomonidan «loyiha» atamasi qonunlashtirilgan. V.Kilpatrik, E.Kollings, E.Parxerst bu metodni rivojlantirgan.

Loyihaviy ta'limning afzalliklari: muammoni izlab topish va tadqiq qilishga yo'naltiradi; mustaqil faoliyat va real hayotga bog'liq o'quv muhitini yaratadi; fan bilimlarini mustahkamlaydi; talabalarning amaliy faoliyatini rivojlantiradi. Ta'limni hayot bilan bog'laydi.

O'quv loyihalar turlari: 1. Faoliyat xususiyatiga ko'ra: tadqiqotchilik; ijodiy; axborotli. 2. Qo'llash sohasiga ko'ra: ishlab chiqarishga oid (texnikaviy); ijtimoiy loyihalar. 3. Muammoni ishlab chiqish xususiyatiga ko'ra: bir fanli loyiha; fanlararo loyiha; fan tashqarisidagi loyiha. 4. Davomiyligiga ko'ra: qisqa muddatli; o'rta muddatli, uzoq muddatli.

Loyiha bosqichlari: 1. Tayyorgarlik: loyiha tanlash, rejalashtirish (auditoriyada). 2. Bajarish: mustaqil ish (auditoriyadan tashqarida). 3. Yakuniy: taqdimot, baholash, refleksiya (auditoriyada).

Loyiha jarayoni: 1. Muammoni shakllantirish. 2. Guruh tuzish. 3. Rejalashtirish. 4. Axborot yig'ish. 5. Axborot tahlili. 6. Loyihani rasmiylashtirish va taqdimot. 7. Natijalarni baholash.

Fikrimizning dalili sifatida yuqorida keltirilgan metodlardan tibbiy oliy ta'limda foydalanishga oid misollar keltirib o'tamiz.

«O'tkir revmatik isitma (ORI): simptomatologiya va diagnostika» mavzusini o'qitishda o'qituvchi pedagogikaning zamonaviy metodlaridan foydalanishi samarali natija beradi. Quyida shu mavzuga mos metodlar keltirilgan:

1. Muammoli o'qitish (Problem-based learning): mazmuni: talabalarga klinik holat (keys) beriladi, ular simptomlarni tahlil qilib, ORI tashxisini aniqlaydi; maqsad: mustaqil fikrlash, diagnostik fikrlashni rivojlantirish. Masalan: 15 yoshli bemorda bo'g'im og'rishi, yurak sohasida og'riq, subfebril isitma. Sizning taxminiy tashxisingiz? Qanday laborator tekshiruv kerak?

2. Interfaol metodlar (Interactive methods): a) «Aqliy hujum» (Brainstorming): talabalar ORI sabablarini, simptomlarini sanaydi. O'qituvchi ularni tizimlashtiradi; b) «Klaster»

(Cluster): tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishni grafik tarzda ko'rsatish: yurak shikastlanishi, bo'g'im yallig'lanishi, laborator ko'rsatkichlar, Jones mezonlari.

3. Keys-stadi (Case study): real yoki shartli klinik holatlar orqali diagnostika va davolash bosqichlari o'rganiladi. Talabalar guruhlarda muhokama qilib, qaror chiqaradi.

4. Rol o'ynash (Role play): talabalardan biri – shifokor, biri – bemor, biri – laborator mutaxassis. Ular o'z rollarida simptomlarni aniqlaydi, tahlil natijalarini sharhlaydi, tashxis qo'yadi.

5. Test va viktorinalar: dars so'ngida ORI simptomatologiyasi va Jones mezonlari bo'yicha test savollari yoki "Quiz" o'tkaziladi. Bu bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

6. «Insert» metodi: talabalar o'qituvchi tushuntirayotgan paytda belgilar qo'yib boradi: «?» – bilganim, «+» – yangi ma'lumot, «-» – tushunmagan joy, «?» – savolim bor joy. Keyin shu belgilar asosida muhokama qilinadi.

7. Multimedia taqdimot (video, slayd): yurak shikastlanish mexanizmi, EKG o'zgarishlari, laborator natijalarni vizual tarzda tushuntirish talabalar xotirasida yaxshiroq saqlanadi.

8. «Juftlikda ishlash» yoki «Guruhli o'qitish»: talabalar kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh: simptomatologiyani, laborator diagnostikani, Jones mezonlarini tayyorlaydi va taqdim etadi.

Yakuniy bosqich: Refleksiya: talabalar o'z fikrini bildiradi («Bugun nimani bildim?», «Qanday diagnostika mezonlari esda qoldi?»). Baholash: test, og'zaki savollar yoki keys yechimi orqali.

Xulosa. Ta'lim metodlari pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lib, uning to'g'ri tanlanishi ta'lim samaradorligiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, OTMda faoliyat yurituvchi o'qituvchi metodikadan xabardor bo'lishlikni talab etadi. Bundan tashqari uni tanlash mezonlariga qat'iy rioya qilish ham lozim bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Xakimova M.F., Mamarajabov Sh.E. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma. - T., 2021. - 186-b.

2. Mamarajabov Sh.E. Ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish va baholash nazariyalari va metodlari: O'quv qo'llanma. - T., 2021. - 226-b.

3. Xodjayev B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti: Darslik. - T., 2017.

4. Akbar T. Opportunities to form spiritual competence in students of the 10-11th class // Web of scholars: multidimensional research Journal. - 2022. - T. 1. - № 8. - C. 160-167.